


VIII. KICHIK TADBIRKORLIK (BIZNES)

2022-yilning yanvar–dekabr oylarida 15078 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur‘ati 94,4 % ni tashkil qildi.

Eng ko‘p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida (jamiga nisbatan 38,7 %), sanoat tarmog‘ida (10,3 %), qurilish tarmog‘ida (7,7 %), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar tarmog‘ida (6,5 %), axborot va aloqada (7,6 %), tashish va saqlash (4,4 %), sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (1,9 %), qishloq, o‘rmon, baliq xo‘jaligi (1,2 %) va boshqa tarmoqlar (21,6 %) tashkil etgan.

**2022- yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan
kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy
faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, foizda**



2022- yilning yanvar–dekabr oylarida kichik tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan:

– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 38 904,9 mlrd. so‘mni (jami sanoat ishlab chiqarishining indeksi 36,3 %) ni tashkil qiladi;

– investitsiyalar hajmi 24 108,9 mlrd. so‘mlik (umumiy investitsiyalar hajmidagi ulushi 42,5 %) o‘zlashtirildi va 2021-yilning yanvar–dekabrga nisbatan o‘shish sur‘ati 104,5 % ni tashkil qildi;

– qurilish ishlari hajmi 20 122,5 mlrd. so‘mlik (qurilish ishlari umumiy hajmidagi ulushi 63,1 %) va 2021-yilning yanvar–dekabrga nisbatan o‘shish sur‘ati 101,1 % ni tashkil qildi;

– xizmatlar hajmi 35 935,4 mlrd. so‘mlik ko‘rsatilib (jami xizmatlar hajmidagi ulushi 26,2 %) 2021-yilning yanvar– dekabrga nisbatan o‘shish sur‘ati 106,1 % ni tashkil qildi;

– avtomobil transportida 56 358,2 ming tonna yuk tashilib (jami avtomobil transporti yuk tashishdagi ulushi 35,6 %) 2021 yilning yanvar– dekabrga nisbatan o‘shish sur‘ati 138,2 % tashkil qildi;

– avtomobil transportida 1 011 760,4 ming yo‘lovchi tashilib (umumiy yo‘lovchi tashishdagi ulushi 85,7%) 2021-yilning yanvar–dekabrga nisbatan o‘shish sur‘ati 107,2 % ni tashkil qildi;

– savdo hajmi 49 886,46 % mlrd. so‘mlik chakana tovar aylanmasi shakllanib (umumiy chakana tovar aylanmasi hajmidagi ulushi 60,8 %) 2021-yilning yanvar– dekabrga nisbatan o‘shish sur‘ati 103,6 % ni tashkil qildi;

– tovarlar eksport hajmi 966834,8 ming .AQSh dollarni (umumiy eksport hajmidagi ulushi 20,9 %) 2021-yilning yanvar– dekabrga nisbatan o‘shish sur‘ati 140,9 % ni tashkil qildi;


Kichik tadbirkorlikning asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlardagi ulushi

(umumiy hajmiga nisbatan mlrd.so‘mda)


Tumanlar bo‘yicha eng yuqori sanoat mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmi Olmazor (5 221,1 mlrd.so‘m), Yashnobod (4 447,4 mlrd. so‘m), Chilonzor (4 467,9 mlrd. so‘m), Sergeli (3 689,5 mlrd.so‘m), Yakkasaroy (3 525,5 mlrd.so‘m), Bektemir (2 902,3 mlrd. so‘m), Yangihayot (2 840,7 mlrd.so‘m) tumanlar hissasiga to‘g‘ri keladi.

Yunusobod (2,789,9 mlrd. so‘m), Mirzo Ulug‘bek (2 470,0 mlrd. so‘m), Mirobod (2 205,5 mlrd. so‘m), Shayxontohur (2 204,2 mlrd. so‘m) va Uchtepa (2 110,2 mlrd. so‘m) tumanlarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo‘lib qolmoqda.

2022 -yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va ulushi




2022- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati



Chakana tovar aylanmasi bo'yicha eng yuqori hajm Uchtepa (6822,1mlrd. so'm), Yunusobod (5667,9 mlrd.so'm), Chilonzor (5566,6 mlrd.so'm), Shayxontohur (5476,5 mlrd. so'm), Yakkasaroy (5336,7 mlrd.so'm), Bektemir (4537,5 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.


Shuningdek, tumanlar bo'yicha eng past chakana tovar aylanmasi Yangihayot (580,6mlrd. so'm), Sergeli (2751,4 mlrd. so'm), Mirzo Ulug'bek (2789,7 mlrd. so'm) Mirobod (3 207,2 mlrd. so'm) va Yashnobod (3531,8 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

2022- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati



Qurilish sohasi bo'yicha eng yuqori hajmga ega bo'lgan Yunusobod (2602,7 mlrd.so'm), Mirzo Ulug'bek (2539,2 mlrd. so'm), Yakkasaroy (2321,3 mlrd. so'm), Mirobod (2315,0 mlrd. so'm), va Yashnobod (1934,6 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi. Chilonzor tumani (1846,6 mlrd.so'm), Olmazor tumani (1660,4 mlrd. so'm), Shayxontohur tumani (1265,2 mlrd.so'm), Sergeli tumani (1216,1 mlrd. so'm), Uchtepa tumani (1116,6 mlrd.so'm),Yangihayot tumani (746,4 mlrd.so'm) va Bektemir tumani (558,0 mlrd.so'm) qurilish sohasida past hajmga ega.


2022-yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da investitsiya sohasi hajmi va ulushi



Investitsiya sohasi bo'yicha eng yuqori hajmlar Yunusobod (4540,3 mlrd.so'm), Olmazor (3158,8 mlrd. so'm), Mirzo Ulug'bek (2730,3 mlrd. so'm), Yakkasaroy (2669,2 mlrd. so'm), Yashnabod (2017,7 mlrd.so'm) va Mirobod (1795,6 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Chilonzor (1584,8 mlrd. so'm), Sergeli (1358,9 mlrd. so'm), Shayxontohur (1175,1 mlrd. so'm), Bektemir (1123,2 mlrd. so'm), Yangihayot (498,1 mlrd. so'm) tumanlarida investitsiya hajmi past bo'lib qolmoqda.

2022- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati



Xizmatlar sohasida eng yuqori hajmlar Chilonzor (6256,9 mlrd. so‘m), Mirobod (6228,1 mlrd.so‘m), Yakkasaroy (5773,7 mlrd.so‘m), Yunusobod (5754,4 mlrd.so‘m), Mirzo Ulug‘bek (5062,6 mlrd. so‘m), Shayxontohur (4634,5 mlrd. so‘m), Yashnobod (4564,0 mlrd. so‘m) va Olmazor (4225,2 mlrd. so‘m) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Eng past xizmat hajmiga ega bo‘lgan Uchtepa (2732,7 mlrd.so‘m), Sergelii (2576,5 mlrd. so‘m), Bektemir (1764,7 mlrd. so‘m) va Yangihayot (1551,4 mlrd. so‘m) tumanlari hisoblanadi.

2022- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning hududlar bo‘yicha iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ulushi, foizda

	<i>Sanoat</i>	<i>Qurilish</i>	<i>Xizmatlar</i>	<i>Chakana savdo</i>
Toshkent shahri	36,3	63,1	37,2	60,8
<i>tumanlar:</i>				
Bektemir	29,3	57,4	39,5	87,5
Mirzo Ulug‘bek	43,2	75,5	39,0	53,3
Mirobod	28,0	64,1	36,3	54,6
Olmazor	65,7	82,7	39,8	59,9
Sergeli	30,2	86,3	33,3	48,4
Uchtepa	40,7	54,4	35,0	87,6
Chilonzor	46,5	58,4	42,5	53,5
Shayxontohur	32,2	59,8	31,1	58,8
Yunusobod	54,0	50,2	31,2	50,1
Yakkasaroy	47,0	85,0	49,1	69,3
Yashnobod	18,3	71,3	36,3	59,3
Yangihayot	59,5	63,6	37,4	38,2

Tumanlar bo‘yicha sanoat mahsulotlarni ishlab chiqarish bo‘yicha eng yuqori ulush Olmazor (65,7%), Yangihayot (59,5%), Yunusobod (54,0%), Yakkasaroy (47,0%), Chilonzor (46,5%), Mirzo Ulug‘bek (43,2%), Uchtepa (40,7%), Shayxontohur (32,2%), Sergeli (30,2%), Bektemir (29,3%), Mirobod (28,0%) va Yashnobod (18,3%) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Qurilish bo‘yicha eng yuqori ulush Sergeli (86,3%), Yakkasaroy (85,0%), Olmazor (82,7%), Mirzo Ulug‘bek (75,5%), Yashnobod (71,3%), Mirobod (64,1%), Yangihayot (63,6%), Shayxontohur (59,8%), Chilonzor (58,4%), Bektemir (57,4%), Uchtepa (54,4%) va Yunusobod (50,2%) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Xizmatlar sohasida eng yuqori ulush Yakkasaroy (49,1%) Chilonzor (42,5%), Olmazor (39,8%), Bektemir (39,5%), Mirzo Ulug‘bek (39,0%), Yangihayot (37,4%) Mirobod (36,3%), Yashnobod (36,3%), Uchtepa (35,0%), Sergeli (33,3%), Yunusobod (31,2%), Shayxontohur (31,1%) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Chakana savdo aylanmasida eng yuqori ulush Uchtepa (87,6%), Bektemir (87,5%) Yakkasaroy (69,3%), Olmazor (59,9%), Yashnobod (59,3%), Shayxontohur (58,8%), Mirobod (54,6%), Chilonzor (53,5%), Mirzo Ulug ‘bek (53,3%) tumanlariga to‘g‘ri keladi.


2022-yilning yanvar–dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 46,8 % ni tashkil qildi (2021-yilning yanvar–dekabr 48,8 %), YAHM tarkibi o‘tgan yilga nisbatan 2,0 foizga kamaygan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 2022-yil yanvar– dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi. Unda 3762 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi.

Kuzatuv ma’lumotlari tahlili, sanoat sohasida respondentlarning 10,5 % qoniqarsiz deb hisoblashini, mos ravishda sanoat sohasida 33,5 % qulay va 56,0 % esa qoniqarli, qurilish sohasida 32,0 % qulay va 56,0 % esa qoniqarli, savdo sohasida 31,5 % va 57,8 %, xizmatlar sohasida 35,0 % qulay va 56,9 % qoniqarli ni tashkil qilganini ko‘rsatdi.

Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar xizmatlarda 8,1%, qurilishda 12,0 %, savdoda 10,7 % va sanoatda 10,5 % ni tashkil qildi.

**Kichik tadbirkorlikda iqtisodiy vaziyatni tarmoqlar kesimida baholash
2022- yil yanvar-dekabr oylarida, foizda**



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko‘rilayotgan chora-tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Yuridik shaxs – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

Yuridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lishlari kerak.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Chakana savdo bu – oxirgi foydalanuvchilarga tovarlar va xizmatlar sotish bilan bog'liq iqtisodiy faoliyat.

Ulgurji savdo bu – katta miqdordagi tovarlarni sotishni o'z ichiga olgan iqtisodiy faoliyat.

Kichik va o'rta biznes - mustaqil mulk egaligiga, xo'jalik faoliyatini mustaqil tashkil etishga asoslangan va o'z tarmog'ida hukmron mavqe tutmaydigan biznes. Turli mamlakatlarda kichik va o'rta biznes sub'yektlari maqomini belgilab beruvchi mezonlar sifatida korxonada band bo'lgan ishlovchilar soni, korxonaning tovar aylanmasi, aktivlar, kapitallar, foyda miqdori va boshqa ko'rsatkicHLardan foydalaniladi. O'zbekistonda kichik va o'rta biznes sub'yektlarini aniqlashda korxonada ishlovchilar soni mezon qilib olingan.